

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

**AMALIY FILOLOGIYA
MASALALARI**

2025 Vol. 1 (5)

www.aphil.tsuull.uz

Bosh muharrir:

Saodat Muhamedova

Mas'ul kotib:

Yekaterina Shirinova

Tahrir kengashi

Aynur O'zjan (Turkiya), Baydemir Husayn (Turkiya), Alfiya Yusupova (Rossiya), Luiza Samsitova (Rossiya), Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Merveri Ismailova (Ozarbayjon), Abdulhay Sobirov, Manzura Abjalova, Xurshida Kadirova, Shoira Isayeva, Nargiza Musulmonova, Munira Shodmonova, Oqila Turaqulova, Iroda Azimova, Dilafruz Xidoyatova, Dilrabo Elova, Elyor Xonnazarov, Xasan Akramov, Ra'no Azizova, Azimjon Davronov, Nasiba Jo'raqulova.

Jurnal haqida ma'lumot

“O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, unda professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning amaliy tilshunoslik, amaliy adabiyotshunoslik, kompyuter lingvistikasi, o'zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o'qitish, noshirlik ishi, qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi sohalarga oid tadqiqotlari nashr qilinadi.

Jurnal ilovasi bir yilda to'rt marta chop etiladi.

O'zbek, rus va ingliz tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin. “O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari” seriyasi 2022-yildan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,

Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: aphil@tsuull.uz

Website: <http://www.aphil.tsuull.uz>

MUNDARIJA

AMALIY FILOLOGIYA

Мирвари Исмайлова

Научная концепция о происхождении тюрков в Передней Азии ...5

Nasiba Jo'raqulova

Xalq dostonlarida turkiy obraz tasviri14

Sohiba Gazibekova

Diniy tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklarning poetik imkoniyatlari (Xayriddin Sulton asarlari misolida)25

Umida Abdullayeva

Badiiylik modusi - she'riyatdagи modifikatsion usul31

QIYOSIY TILSHUNOSLIK

Зульфия Ишкильдина, Луиза Самситова

Корневая морфема в русском и башкирском языках38

Xurshida Kadirova, Xankishi Məmmədov

"Gözəllik" komponentləri ilə paremioloji birliklərin iks-femik semantikası49

Xurshida Kadirova, Odina Uralova

Turkiy va turk xalq maqollarining lingvistik tadqiqi59

Nargiza Aytniyazova

O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi paremiyalarning lingvokulturologik aspekti75

O'ZBEK TILINI XORIJY TIL SIFATIDA O'QITISH

Dilora Bahronova

Xorijliklarga o'zbek tilini o'qitishda til va madaniyat integratsiyasi ...84

LINGVOKULTUROLOGIYA

Shakhzoda Khayrullaeva

A linguacultural analysis of emotions through metaphors (in english and uzbek: anger, fear, love, and pride)90

PSIXOLINGVISTIKA

Dildora Salimova

Psixolingvistikada nutqni idrok etish masalasi102

SOTSIOLINGVISTIKA

Gulbahor Iskandarova, Yekaterina Shirinova

Bolalarda gender identifikasiyasining lisoniy jihatdan xoslanishi ...111

Lobar Rahimqulova	
Ijtimoiy tarmoqlardagi konfliktli yozishmalarda yosh xususiyatini ifodalovchi lingvistik va paralingvistik birliklar	119
 TIL TA'LIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI	
Gulshan Asilova, Fatma Açık	
Ona tili ta'limida o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun matnlarni tanlash tamoyillari	127
 Турсуной Юсупова	
Проблема подготовки обучающихся к текстообразительной деятельности путем выполнения грамматических заданий	139
 Мунира Шодмонова	
Развитие критического мышления у студентов как педагогическая проблема	150
 Yekaterina Shirinova, Gulbahor Iskandarova	
Til ta'limiga antroposentrik yondashuv masalasiga doir	165

TIL TA'LIMIGA ANTROPOSENTRIK YONDASHUV MASALASIGA DOIR

Yekaterina Shirinova¹
Gulbahor Iskandarova²

Annotations

Bugungi kunda til hodisalarini antroposentrik paradigma doirasida tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etib, mazkur paradigma doirasida tadqiqotlar samarasi o'larоq psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmalingvistika, madaniyatlararo kommunikatsiya kabi tilshunoslik sohalar, mustaqil integrativ yo'naliшlari shakllandi va rivojlanib bormoqda. Tilshunoslikdagi nazariy qarashlarni til ta'limga ham tatbiq etish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi, xususan o'zbek tilini o'qitish metodikasinitakomillashtirib, uniyangitarraqqiyotbosqichigaolibchiqishga xizmat qilishi mumkin. Ushbu maqolada til ta'limga antroposentrik yonadashuvning mohiyati va ahamiyatiga e'tibor qaratiladi, til ta'limi jarayonida antroposentrik yonadashuvning tadqiqi o'rganiladi, uning nazariy asoslari va amaliyotda qo'llanishi ko'rib chiqiladi. Maqolada til o'rganish jarayonida kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish, madaniy kontekstda tilning o'rganilishi va tilshunoslikning zamonaviy talablari bilan bog'liq muammolar hamda yechimlar taklif etiladi. Antroposentrik yonadashuv, asosan, til o'qitish va o'rganish jarayonlarida kontekstual ma'lumotlarni hisobga olishni, til bilimi va tajribasini integratsiyalashni, til ta'limga lingvomadaniyatshunoslik prizmasi orqali nazar solish asosida til bilan birgalikda shu til sohiblari madaniyatini o'rganishni ta'minlaydi, psixolingvistik aspekt doirasida nutq ontogenezi jarayonlariga tayangan holda til o'qitish metodikasini takomillashtirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: *antroposentrism, paradigma, til ta'limi, o'zbek tilini o'qitish metodikasi, pragmatik yonadashuv, psixolingvistik yonadashuv,*

¹ Shirinova Yekaterina Turakulovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti ta'limi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

E-pochta: yekaterina@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-9164-5327

² Iskandarova Gulbahor Turabayevna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi.

E-pochta: iskandarovagulbahor@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-4189-2725

Iqtibos uchun: Shirinova, Y.T., Iskandarova, G.T. 2025. "Til ta'limga antroposentrik yonadashuv masalasiga doir". *O'zbekiston: Til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari*. 1 (5): 165-176.

DOI: 10.52773/tsuull.aphil.2025.1 (5)/UGNZ2770

lingvokulturologik yondashuv, kommunikativ qobiliyat, nutq ontogenezi, til o'qitish, madaniy kontekst.

KIRISH

Til ta'lifi murakkab va muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Har bir millat va madaniyat o'z tiliga ega bo'lishi bilan birga har bir jamiyatda uni o'qitishga, o'rganishga talab yuqori. Quvonarlisi shundaki, bugungi kunda til o'qitish jarayonlarini samarali tashkil etishga qaratilgan metodikalar ishlab chiqilmoqda, interaktiv ta'lim modellari joriy etilmoqda. To'g'ri, mohiyatan ta'lim jarayonining markazida inson: ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi turadi, har bir o'quvchining, o'rganuvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda shaxsga yo'naltirilgan ta'limdan ham unumli foydalanimoqda va bu antroposentrizmning engyorqinko'rinishidir. Biz esa til ta'limi jarayonlariga antroposentrik yondashish zarurligini qayd qilayotganimizda pedagogik jarayonning diqqat markazida azaldan inson turishini inkor etmagan holda, til hodisalari, birliklari va sathlarini o'rgatishda tilshunoslikdagi zamonaviy antroposentrik paradigma doirasida vujudga kelgan zamonaviy yo'nalishlar: psixolingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiya, madaniyatlararo kommunikatsiya kabi sohalarning nazariy yutuqlarini amaliyotda qo'llash yanada samaralinatija berishga xizmat qilishi mumkinligini qayd qilamiz. Til ta'limiga antroposentrik yondashuvda tilni o'rganishda kontekst, madaniyat va tilni ishlatish holatlari muhim rol o'ynaydi.

Xorijiy tillarini o'qitishda antroposentrik yondashuvdan shu paytgacha foydalanimagan, deb bo'lmaydi. Zero kommunikativ metod doirasida pragmatika elementlari bilan o'qitish uchun boy lingvodidaktik asos tayyorlanganligini E.A.Maslyko, E.I.Pasov, V.V.Safanova, V.P.Furmanova kabilarning izlanishlaridan ko'rishimiz mumkin. Keyinchalik G.Noyner va X.Xunfeldlarning xorijiy metodologiyasida ishlab chiqilgan pragmatik-funksional konsepsiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan kommunikativ yondashuvning mazmuni kengaydi. Ularning g'oyalariiga qator tilshunoslar va metodistlar tomonidan munosabat bildirilgan (Argustanyants E.S., 1982; Baskova M.E., 1992; Nabieva V.M., 1996; Astafurova V.N., 1997; Gorodnikova G.D., Dobrovolskiy D.O., 2200). V.P.Furmanovaning madaniyatni chet tillarini o'qitish nazariyasi va amaliyotiga integratsiyalash va chet tillarini o'qitishda pragmatik omillarni hisobga olishga qaratilgan madaniy va lingvistik pragmatik konsepsiyasi ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Antroposentrik yondashuv, xususan pragmatik yondashuv, asosan, tilning foydalanilishi va kommunikatsiya holatlarini o'rganish orqali tilni o'rganish jarayonidagi natijalarni optimallashtirishga qaratilgan. Pragmatik yondashuv til ta'limida til o'rganuvchilarni faqat grammatik qoidalar bilan emas, balki real hayotdagi kommunikatsiya sharoitlarida tilni qanday ishlatishni ham o'rganishga undaydi. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pragmatik yondashuv yordamida kommunikativ qobiliyatlar yanada kuchayadi va o'zaro tushunish, shuningdek, madaniy interaksiya ko'nikmalari rivojlanadi (Levinson, 1983; Brown & Levinson, 1987).

Tilshunoslik va metodologiyada muloqot, nutq nazariyasi, diskurs nazariyasi, kommunikativ ta'sir va pragmalingvistikaning xorijiy tillarni o'qitish nazariyasi va amaliyotiga integratsiyalashuvi muammolariga bag'ishlangan mavjud ilmiy tadqiqotlar quyidagi jihatlarga bag'ishlangan:

- lingvistik hodisalarining kommunikativ-pragmatik jihatlari (Komina N.A., 1984; Belyaeva E.I., 1988; Baskova M.E., 1992; Anisimova E.E., 1994; Bykova I.A., 1997; Buzukladova I.19);

- pragmatik yo'naltirilgan holda muloqotga o'rgatish (Gorlyakov P.Yu., 2001);

- shaxslararo muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish (Drokina S.V., 1996; Rumyantseva T.A., 1999, Smirnova E.V., 1999);

- kommunikativ xulq-atvor strategiyalari (Andrushko S.Ya., 1990; Astafurova T.N., 1997; Issers O.S., 1999);

- kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish (Volovik A.V., 1988; Ponutrieva V.P., 1997; Zhoglina G.G., 1998; Konovalova R.A., 1998),

- madaniyatlararo va mintaqaviy tadqiqotlar (Borovkova E.E., 1996; Otmenitova O.M.V., Otmenitova 1906;

- chet tilidagi muloqot holatlarida etnolingvomadaniy kompetensiya (Vyrypaeva L.M., 1999);

- grammatika o'qitishga funksional yondashuv (Fedotova I.A., 1997);

- nutqni o'rgatish (Makarova E.JL, 1994; Kucherenko O.I., 2000) [Беспалова 2003].

Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek tilini o'qitish nazariyasi va amaliyotida antroposentrik yondashuv, psixolingvistik, pragmatik, lingvokulturologik omillarni har tomonlama hisobga olish masalalari o'z tadqiqini kutayotgan dolzarb masalalardandir. Bundan tashqari, ta'lim mazmuniga diskursni kiritish masalalari ham o'zbek tilini o'qitish metodikasi nuqtayi nazaridan yetarlicha

o'rganilmagan, vaholangki, bunday yondashuv muloqot mexanizmi va uning dinamikasini o'rganish uchun imkoniyatlar ochadi, chunki aynan nutq jarayonida, diskursda til birliklarining, barcha til sathlarining funksiyalari namoyon bo'ladi. Demak, til ta'limi jarayonida, xususan, o'zbek tilini ham ona tili sifatida, ham xorijiy til sifatida o'qitishda antroposentrik nuqtayi nazardan yondashish, zamonaviy tilshunoslikning yangi nazariy xulosalarini til o'qitish amaliyotiga tatbiq etish o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning kommunikativ qobiliyatlarini o'stirish, muloqotga kirishishida to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan omillarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Til ta'limiga antroposentrik yondashish deganda, yuqorida ta'kidlanganidek, psixolingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiya kabi yo'nalishlarning nazariy qonuniyatlarini til va nutq hodisalarini o'rgatish, ta'lim oluvchilarning shu doiradagi bilim, ko'nikma, malakalari va nutq kompetensiyalarini, kommunikativ qibiliyatlarini rivojlantirishga tatbiq etish nazarda tutiladi. Quyida mazkur yo'nalishlarning ilmiy-nazariy xulosalarini qanday holatlarda qo'llash samarali bo'lishi mumkinligini tahlil qilamiz.

Psixolingvistika - til va inson psixikasi o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan fan. U odamlarning nutqni tushunishi, yaratishi va idrok etishi jarayonlarini tekshiradi. O'qituvchilar uchun bu jarayonlar til o'rgatish kontekstlarida qanday ishlashini ko'rib chiqishlari muhim, chunki ular motivatsiya, tushunish va tildan foydalanishga ta'sir qilishi mumkin. Psixolingvistika, rus olimlarining ta'rifiga ko'ra, nutq faoliyati nazariyasi haqidagi fandir. Ushbu fanning asosiy tushunchalari nutq ontogenezi, nutqning yaratilishi, nutqni qabul qilish va idrok etish, axborotni kodlash va dekodlash, interferentsiya, transferensiya...

Quyida biz ushbu psixolingvistik hodisalarning ba'zilari tilni o'qitish jarayonida, shu jumladan o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda qanday namoyon bo'lishini ko'rib chiqamiz.

1. Nutq ontogenezi. Ma'lumki, kichik yoshdan bolalardagi ikkinchi tilni o'rganish jarayoni tabiiy muhitdan til o'zlashtirgan bolaning nutqi ontogeneziga juda o'xshaydi. Chunki bola ongida qiyoslash va qoidalar tuzish yo'li bilan o'rganish uchun o'ziga xos lingvistik zaxira yo'q. Natijada, bolaning tilni o'rganish uchun boshqa imkoniyati yo'q.

Bugungi kunda ko'plab tilshunos-metodistlar ushbu dalilga tayanib, xorijiy tilini aynan shunday o'rganish zarurligini, ya'ni

bola o'z ona tilini o'zlashtirgani kabi, shu strategiya asosida darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish, ya'ni til o'rganishni grammatik qoidalarga alohida urg'u bermasdan, yo'l-yo'lakay, tabiiy muloqotga asoslangan holda, audio tinglash, video tomosha qilish yordamida amalga oshirish kerak, degan fikrni ilgari surmoqda. Kattalar ongida birinchi marta til o'rganayotgan boladan farqli o'laroq, ma'lum bir til (yoki tillar) zaxirasi saqlanib qolishi, qiyoslash va qiyosiy o'rganish ko'nikmalari shakllantirilishi va rivojlanishini ta'kidlash lozim. Bolalar o'zimkoniyatlari darajasida ona tilini o'rganadilar. Xo'sh, nega kattalar o'zlarida mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlardan (bolalar hali ega bo'limgan qobiliyatlardan) foydalanmasliklari kerak? Bola tilni tabiiy ravishda o'rganadi va u o'rganish uchun foydalanadigan usuldan qat'i nazar, kattalar yangi tilni o'rganayotganini tushunadi. Demak, kattalarda tilni o'rganish va o'zlashtirish jarayoni parallel ravishda boradi va bizningcha, grammatikaga (formulalarga) asoslangan, ona tili va o'rganilayotgan tilni solishtirish va o'rganish imkonini beradigan usuldan samarali foydalanish ham maqsadga muvofiqdir [Muxamedova S.X., Shirinova Y.T. 2024; Shirinova 2024].

2. Shuni ta'kidlash kerakki, chet tilini o'qitishda ko'p tillilik manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunday holda **transferensiya** kuzatiladi. Bir nechta tillarni bilish o'quvchilarga o'xshash grammatik tuzilmalar va lug'atdan foydalanish orqali yangi tilni o'rganishga yanada moslashuvchan yondashish imkonini beradi. Masalan, o'quvchi ma'lum bir turkiy tilni bilsa va o'zbek tilini o'rganayotgan bo'lsa, ularni qiyoslash va solishtirish mumkin, bu esa o'quv jarayonini osonlashtiradi.

3. **Interferensiya.** Ko'p tilli muhitda til o'rganishda interferensiya bir necha aspektlarda namoyon bo'ladi, chunki bunday kontekstda talabalar ko'pincha bir vaqtning o'zida bir nechta tillar bilan muloqot qilishadi. Bu yerda e'tibor berish kerak bo'lgan asosiy fikrlar:

A. *Leksik interferensiya*: bir tildagi so'zlar tasodifan boshqa tildagi so'zlar o'rnila qo'llanishi mumkin. Masalan, ingliz va rus tillarini biladigan talaba o'zbek tilidagi gapda ruscha so'zdan foydalanishi mumkin. Shuningdek, ko'p tilli muhitda leksik aralashuv ba'zi o'quvchilarda lingvistik shokni keltirib chiqarishi mumkin, chunki ularning ona tilida bunday shaklga ega bo'lgan so'z butunlay boshqacha (ba'zan odobsiz) ma'noni bildirishi mumkin.

B. *Fonetik interferensiya*: talaffuz boshqa tilning ta'siridan aziyat chekishi mumkin. Masalan, o'quvchi rus tilini bilsa va o'zbek tilini o'rganayotgan bo'lsa, o'zbek tili fonemalari o'rniga rus

fonemalaridan foydalanishi mumkin, bu esa o'zbekcha so'zlarning noto'g'ri talaffuz qilinishiga olib keladi. Masalan: o'quvchi so'zini okuvchi sifatida talaffuz qilish mumkin. Chunki rus tilida o', q, g', h fonemalari mavjud emas. Bu fonemalarni turkiy tillarda so'zlashuvchi o'quvchilar bemalol talaffuz qilishlari mumkin. Ko'pchilik o'rganilayotgan til fonemalarini to'g'ri talaffuz qiladigan ko'p tilli muhitda esa o'rganilayotgan til bilan bir tizimga kirmaydigan tilning ona tili bo'lgan talaba to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini tezda egallaydi.

B. *Grammatik interferensiya*: talabalar grammatic qoidalarni bir tildan boshqa tilga o'tkazishi mumkin. Misol uchun, talabalar bir tildagi ma'lum bir gap strukturasini boshqa tilga qo'llashga harakat qilishlari mumkin, bu esa xatolarga olib kelishi mumkin. Tillarning aralashuvi tufayli jumla tuzilishi buzilishi mumkin. Misol uchun, bir til konstruksiyasidagi so'z tartibi boshqasiga qo'llanishi mumkin, bu ko'pincha chalkash iboralarga olib keladi.

D. *Madaniy aralashuv*: madaniy xususiyatlar tilni tushunish va ishlatishga ta'sir qilishi mumkin. Talabalar madaniy kontekstdagi farqlar tufayli jumlalar yoki iboralarni noto'g'ri talqin qilishlari mumkin.

E. *Kognitiv yuklama*: ko'p tilli va ko'p madaniyatli muhitda talabalar odatda ma'lum bir tilni tabiiy tarzda, ongli ravishda emas, balki guruhdagi boshqalar bilan muloqot qilish orqali o'rganadilar, chunki ko'pchilik ularga o'rgatilayotgan tilda gapirish qiyin bo'lganida, ko'pincha o'z ona tillarida gaplashadi va ma'lum darajada bir vaqtning o'zida guruh a'zolarining tillarini o'rganadi. Bir vaqtning o'zida bir nechta tillarni o'rganish (o'zlashtirish) ko'proq kognitiv yukni talab qiladi, bu esa xatolar va chalkashliklarga olib kelishi mumkin.

Interferensiyaning salbiy oqibatlarini minimallashtirish uchun tillarni aniq ajratish uchun sharoit yaratish, kontekstli o'qitishdan foydalanish, talabalarga turli vaziyatlarda maqsadli tilni mashq qilish va faol ishlatish imkoniyatini berish muhimdir. Tillar orasidagi farqlarni bilish va tahlil qilishga yordam beradigan usullardan foydalanish ham foydalidir.

4. **Axborotni kodlash va dekodlash.** Ch.Osgudning nutqni idrok etish modeliga ko'ra, samarali muloqot qilish uchun axborotni kodlash va dekodlash bir kod, ya'ni bir til doirasida amalga oshirilishi kerak. Ammo ko'p tilli muhitda aloqa jarayoni bu nuqtai nazarga mos kelmaydi va bu adresat tomonidan uzatiladigan ma'lumotni to'g'ri dekodlashga to'sqinlik qiladi. O'qituvchi o'rgatilayotgan tildagi ma'lumotlarni kodlaydi, o'quvchilar esa o'z ona tiliga yoki ko'proq

tanish bo'lgan tilga tarjima qilib, uni dekodlashga harakat qiladilar. Tejamkorlik, aniqlik va samaradorlik tamoyillari buzilishi mumkin. O'qituvchi aytganlarini to'g'ri tushunishlari uchun aytganlarini takrorlashlari kerak. Tabiiyki, bu mashg'ulot davomiyligiga ta'sir qiladi, ya'ni ko'p tilli muhitda til o'rganish bir tilli muhitga qaraganda uzoq davom etishi mumkin.

Pragmatik yondashuv nima? Pragmatika – bu til va til o'zgarishlarining kontekstida qanday ishlashini o'rganadigan lingvistik soha. Pragmatik yondashuv til ta'limida o'quvchilarni real hayotdagi mazmunli vaziyatlarga tayyorlash uchun foydalanuvchi mahorat va ko'nikmalarini rivojlantirish demakdir.

Pragmatik yondashuv tamoyillarini quyidagicha ajratish mumkin:

Kontekst: eil o'qitishda kontekstni hisobga olish. Misollar va vaziyatlarni kiritish orqali tilning haqiqiy muloqotda qanday ishlashini ko'rsatish.

O'zaro aloqalar: o'quvchilarga bir-birlari bilan muloqot qilish imkoniyatini berish, interaktiv faoliyatlar orqali.

Qarashlar va intonatsiya: tildan to'g'ri va o'rinni foydalana olishlari uchun o'quvchilarning tinglash va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Til o'qitishda pragmatik yondashuvni amalga oshirishda bir qancha muammolar mavjud. O'qituvchilar ko'pincha grammatikani asosiy e'tibor sifatida ko'radilar, bu hol pragmatik yondashuvni e'tiborga olishni cheklaydi. Shu sababli, o'qituvchilar va ta'lim muassasalari pragmatik yondashuvni o'zlarining ta'lim dasturlariga kiritishlari kerak (Bachman, 1990). Yechim sifatida, o'qituvchilar pragmatik yondashuvga mos keladigan darslar tayyorlashlari, qo'llanadigan materiallar va metodikalarni yangilashlari zarur. Shuningdek, til o'rganuvchilarni real hayotiy misollar orqali o'rgatish, interaktiv metodlardan foydalanish, guruhli ishlar va rolli o'yinlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali vositalardir.

Pragmatika tildagi so'z va iboralarning ma'nosiga kontekst qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Bu ona tilida so'zlashuvchilar muayyan maqsadlarga erishish uchun turli vaziyatlarda tildan qanday foydalanishini o'rganadi. Ko'p tilli muhitda tilni o'rgatish talabalarni madaniy va ijtimoiy kontekslarda tildan foydalanishdagi farqlar bilan tanishtirishni o'z ichiga oladi. Misol uchun, bir xil so'zlar yoki iboralar turli madaniyatlarda turli xil ma'nolarga ega bo'lishi mumkin, bu esa o'qitishda e'tiborga olinishi kerak.

Ma'lumki, pragmatika so'zlovchining o'z nutqiga, til birliklariga munosabatidir. Turli madaniyatlar so'zlovchilarida ifoda uslubiga munosabat turlicha. Bir madaniyatda bilvosita nutq (fikrlarni hissiy, murakkab jumlalar bilan ifodalash) odatiy hol bo'lsa, boshqa madaniyat nuqtayi nazaridan bu qabul qilinmasligi mumkin.

Bevosita nutq akti (to'g'ridan-to'g'ri va ixcham ifoda) ma'lum bir madaniyatda oqilona hisoblansa, boshqa madaniyat nuqtayi nazaridan bu tilni yetarli darajada bilmaslik kabi ko'rinishi mumkin.

Ta'lim oluvchilar jamoasida bir-biri bilan muloqot qilish zarurati paydo bo'lishi mumkin va bunga yuqorida aytib o'tilgan pragmatik va lingvomadaniy omillar to'sqinlik qilishi mumkin. Bu guruhda psixologik noqulaylikni keltirib chiqarishi mumkin. Nutq aktining ifodalanishi bir-biriga mos kelmasligi mumkin.

Yuqoridagi pragmatik omillarni sinfdoshlar, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotda kuzatish mumkin.

Masalan, o'z nutqida bilvosita aktni ko'p ishlata digan o'zbek tili o'qituvchisi, odatda, bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) nutq aktini qo'llaydigan o'quvchi bilan muloqotda bo'lganda, suhbatdoshi uni tilni bilmagani uchun emas, balki nutq madaniyatiga ko'ra, nutqning bunday turini ishlatmaganligi uchun ham tushunmasligi mumkinligini yodda tutishi kerak.

Madaniatlardagi o'ziga xosliklar, tabiiyki, o'sha madaniyat sohibi bo'lgan millatning tilida ham in'ikos etadi, turli madaniyat vakillari o'zaro muloqotga kirishganda bir-birining madaniy xususiyatlari haqida xabardor bo'lmasa, o'zaro muloqotlarida madaniy to'siqlar yuzaga keladi [Shirinova Y. 2022; Shirinova Y. 2023; Shirinova Y., Iskandarova G. 2024].

Muloqot jarayonida 1-kommunikant tomonidan kodlangan va aloqa kanali orqali yuborilgan xabar ikkinchi kommunikant tomonidan qabul qilib olinadi, dekodlanadi va idrok etiladi, o'z navbatida, mazkur xabar 2-tomonda turli emotsiyalarni yuzaga keltirishi mumkin. Agar suhbatdoshingizdan siz taxmin qilgan reaksiyaning qaytishini istasangiz, xabarni aniq, to'g'ri va tushunarli tarzda kodlappingiz, sifatli aloqa kanali orqali (turli xalaqit beruvchi omillar, shovqinlardan imkon qadar xoli ravishda) uzatishingiz zarur. Kommunikativ aktlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarning eng katta qismi kodlanuvchi xabar bilan dekodlangan xabarning o'zaro muvofiq emasligiga bog'liq. Mazkur nomuvofiqliklar asosan Bernar Verberning "Nisbiy va mutlaq bilimlar entsiklopediyasi" kitobidan olingan "Urinish" muammosidagi

quyidagi sabablarga bog'liq bo'lishi mumkin:

1. Ayni paytda men nima deb o'ylayman?
2. Men nima demoqchiman?
3. Nimani aytgandek tuyuldim?
4. Men nima dedim?
5. Nima eshitishni xohlaysiz?
6. Nimani eshitdim deb o'ylaysiz?
7. Nimani eshitdingiz?
8. Nimani tushunmoqchisiz?
9. Tushundim deb o'ylaganingiz?
10. Nimani tushunganingiz?

Muloqotda qiyinchiliklar paydo bo'lishining o'ndan bir ehtimoli bor. Ammo baribir harakat qilaylik... [Bernar Veber]. Darhaqiqat, Bernar Verber qayd qilib o'tgan 10 banddan birortasida nomutanosiblik bo'lsa, muloqotda anglashmovchilik va pirovardida ziddiyatli vaziyat yuzaga kelishi mumkin [Shirinova Y. 2022; Shirinova Y. 2024]. Ta'lim jarayoni, xususan til ta'limi jarayonida kommunikantlar fikrni to'g'ri va to'liq ifodalashga o'rgatilishi kerak, zero bu yuzaga kelishi mumkin bo'lgan anglashilmovchiliklarning oldini oladi.

Xulosa

Til ta'limida antroposentrik: psixolingvistik, pragmatik va lingvokulturologik yondashuv ko'plab afzalliklar taqdim etadi. Bu nafaqat til bilimlarini, balki butun madaniy kontekstni ham o'z ichiga oladi. Bunday yondashuv yordamida til o'rganish jarayoni yanada mazmunli va samarali bo'ladi. O'qituvchilar va ta'lim muassasalari buni anglab yetishlari va o'z ta'lim jarayonlarini bu yondashuvga moslashtirishlari zarur.

Til o'rganish murakkab jarayon bo'lib, u kuchli ehtiyojlarni, samarali o'qitish uslublari va yondashuvlarini hamda til o'rganuvchilar va o'qituvchilarning uzlucksiz harakatlarini talab qiladi. Kuchli salohiyat va mas'uliyat talab qiladi. Bunga erishish uchun tilni, bizning misolimizda o'zbek tilini o'rgatishda o'qituvchi birinchi navbatda o'z o'quvchilarining nutq madaniyati, nutqining lingvopragmatik xususiyatlari to'g'risida ma'lum tushunchaga ega bo'lishi, shuningdek, tilning nafaqat lug'at va grammatiskasini o'rgatishi, balki til madaniyati va lingvopragmatik jihatlarini ham tushuntirishi, o'quvchilarning sotsiopragmatik qobiliyatlarini rivojlanтирish ustida ish olib borishi zarur. Til o'qitish metodiga psixolingvistika, lingvopragmatika valingvomadaniyatshunoslikning

nazariy tamoyillarini joriy etish zarur.

Adabiyotlar

- Беспалова, С. 2003 «Коммуникативно-прагматическая организация обучения иностранным языкам: Немецкий язык, языковой вуз» дисс.канд.филол наук//Диссертация на тему «Коммуникативно-прагматическая организация обучения иностранным языкам: Немецкий язык, языковой вуз», скачать бесплатно автореферат по специальности ВАК РФ 13.00.02 - Теория и методика обучения и воспитания (по областям и уровням образования)
- Muxamedova S.X., Shirinova Y.T. Ko'p tillilik va ko'p madaniyatlik muhitida o'zbek tilini o'rgatish masalalariga doir. O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti, 2024, 1(01), 3–6. Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/anjuman/article/view/96>
- Shirinova, Y., Iskandarova, G. (2024). Inson – madaniyatlar chorrahasida. O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 2 (5): 83-89. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/NQUG6205// <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/79>
- Shirinova, Y.T. 2022. Madaniyatlararo kommunikatsiya xususida // INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY. September. (в формате PDF) Международная конференция, посвященная роли и значению инновационного образования в 21 веке ([researchgate.net](https://www.researchgate.net))
- Ширинова, Е. Т. 2023. «Некоторые соображения о коммуникации». Узбекистан: язык и культура. Вопросы прикладной филологии. 1(5): 84-91. Получено с <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/84-91> DOI: <https://www.doi.org/10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/EFEZ1339>
- Shirinova, Y. (2024). Некоторые принципы и подходы преподавания узбекского языка в многоязычной и поликультурной среде. *Uzbekistan Language and Culture*, 1(01). Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/110>
- Shirinova, Y. (2024). Конфликтное общение: факторы, причины, некоторые пути преодоления. *Uzbekistan Language and Culture*, 2(02). Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/113>

ON THE ISSUE OF ANTHROPOCENTRIC APPROACH TO LANGUAGE EDUCATION

Ekaterina Shirinova¹
Gulbahor Iskandarova²

Annotation

